



YANGI KONSTITUTSIYA – YANGI IMKONIYATLAR ESHIGI

Jabbarova Umida Abdimurat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18195968>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 05-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 09-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

Konstitutsiya, inson qadri,
islohotlar, yangi normalar,
huquqiy institut, inson
huquqlari, konsepsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining o'zni va jamiyatdagi roli, islohotlar natijasida amalga oshirilgan ishlar, yangi kiritilgan normalar misolida inson huquqlarini himoyasi, imkoniyatlarning kengayganligi, islohotlar natijasida inson omilining roli uch barobar yuqori pog'onaga ko'tarilganligi, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar va yangi institutlar tizimi, inson qadri tamoyilining ahamiyati, tizimdagi mavjud o'zgarishlar hamda inson huquqlariga e'tibor chuqur tahlil qilinadi. Maqola metodologik jihatdan tarixiy, qiyosiy tahlil va analiz usullari qo'llangan bo'lib, tadqiqotning ahamiyati, mavjud islohotlar doirasida qilingan amaliy ishlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning jamiyat hayotiga ta'siri, yangi tahrirdagi konstitutsiya bergan imkoniyatlar va inson qadri tamoyilining roli oshgani yoritilgan. Xususan, "Inson – jamiyat – davlat" konsepsiyasining konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi, aholinig zaif qatlamlarini himoya qilishga qaratilgan normalar, ta'lim, mehnat, ijtimoiy kafolatlar bo'yicha yangiliklar ilmiy asosda yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi demokratik, suveren, ijtimoiy, dunyoviy davlat bo'lib, o'z taraqqiyot yo'lini o'zi tanlash huquqiga egadir. Shu o'rinda demokratiya atamasiga ta'rif berib o'tsak. Demokratiya bu davlat ishlarini boshqarishda xalqning bevosita va bilvosita ishtiroki hisoblanadi. Bu davlat hokimiyati xalqning irodasini ifodalashi va chiqarilayotgan har bir hujjat xalq manfaatlariga zid bo'lmasligi lozimligini anglatadi. Aynan, 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ham bevosita demokratiyaning yaqqol isbotidir. Sababi, xalq tomonidan referendum yo'li bilan qabul qilingan. Ushbu Konstitutsiyaning qabul qilinishining zarurati davr taqazosi bo'lganligi uchun 2021-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov jarayonida nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari yurtimizda demokratik islohotlarning ortga qaytmas tus olishi uchun konstitutsiyaviy islohotlarni

amalga oshirish zaruratini ko'rsatib berdi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29 yilligiga bag'ishlangan tabrigida asosiy qonunimizni yanada takomillashtirishning 9 ta yo'nalishini belgilab bergan edi. 2022-yilning 20-may kuni Oliy Majlis Senati Kengashi va Qonunchilik Palatasi Kengashining qo'shma majlisida O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tuziladi hamda uning faoliyatini tartibga soluvchi nizom qabul qilinadi.¹ Konstitutsiyaning loyihasi muhokama qilinganidan boshlab to uni qabul qilinguniga qadar xalqimiz faol tarzda ishtirok etdi. Shu nuqtayi nazardan bemalol aytishimiz mumkinki, yangi tahrirdagi konstitutsiya muallifi xalqimizdir. 2023-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasida referendum bo'lib o'tdi va xalqimiz ushbu referendumda "Konstitutsiya meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya o'zimizniki" shiori ostida qatnashdilar hamda fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yoqlab ovoz berdi. Ushbu referendum xalqimizning tom ma'nodagi orzu-intilishlari, maqsad, istiqbollari, g'oyalarining mahsuli bo'ldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim vositasi sifatida maydonga chiqdi.

Metodlar

Mazkur tadqiqotda birinchi navbatda **tarixiy metod** qo'llanadi, chunki hozirgi zamonaviy konstitutsiyalarning rivojlanish poydevori Rim qonunchiligiga borib taqaladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida so'z yuritishdan oldin Konstitutsiya nima? degan savolga javob berish o'rinlidir. **Konstitutsiya** lotincha "constitution" so'zidan olingan bo'lib, "tuzulish" va "tuzish" degan ma'nolarni bildiradi. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Konstitutsiya davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi. Qadimgi Rimda ham "Konstitutsiya" atamasi bo'lgan va "Imperator konstitutsiyasi" deb atalgan. Qadimda Sharq va Osiyo hamda Markaziy Osiyo mamalakatlari Amir Temur tuzuklari konstitutsiyaviy hujjat xususiyatlariga ega bo'lgan shariat qonunlarini o'z ichiga olgan. Mustaqilligimizning ilk yillarida qabul qilingan asosiy qonunimiz (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi) Sharq va G'arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribaga muvofiq hamda jahon davlatlarining konstitutsiyaviy tajribasini bir qator ilg'or jihatlari hisobga olingan holda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik kengashi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va AQSH, BUYUK BRITANIYA, GERMANIYA, FRANSIYA kabi davlatlar mutaxassislarining ekspertezasidan o'tgandan so'ng 1992-yil 8-dekabr kuni Bosh qonunimiz qabul qilingan. Shu kundan e'tiboran, 8-dekabr umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Bundan tashqari, Qomusimizda 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da e'lon qilingan ko'rsatmalari inobatga olingan. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi mustaqil davlatning huquqiy kafolatlarini shakllantirdi.² Shunday qilib, tarixiy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi katta tarixiy jarayon bo'lgan.

¹ Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. Toshkent-2024.

² Yangi Konstitutsiya: Yangi O'zbekistonning huquqiy asosi. <https://phoenixpublication.net>.

Xususan, bizda Sobiq Ittifoq davrida ham o'z Konstitutsiyamiz mavjud bo'lib, ammo Konstitutsiya Sobiq Ittifoq Konstitutsiyasiga zid bo'lmashligi kerak edi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, vatanimiz oldida ma'suliyatli vazifa bo'lgach, o'z Konstitutsiyamizga ega bo'lish lozim edi. Shu munosabat bilan birinchi Prezidentimiz I.Karimov tashabbusi bilan komissiya hamda ishchi guruhlar shakllantirildi. 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi yangi Konstitutsiya yaratilishi uchun asos bo'ldi. Konstitutsiya loyihasining birinchi varianti 1991-yil noyabrda tayyorlab bo'lindi. 1991-yil 31-avgustda Respublikamizda Mustaqillik e'lon qilindi. Ittifoq davrida boshlangan ishning dastlabki varianti mustaqillik davrida tugallandi. U muqaddima, 6 ta bo'lim va 158 ta moddadan iborat edi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi loyiha ustida ishlashni yanada jonlantirib yubordi. Konstitutsiyada siyosiy, iqtisodiy mustaqillik o'z aksini topishi kerak edi. Shu asosda loyiha takomillashtirilib, 1992-yil bahorida 149 moddadan iborat ikkinchi variant tayyorlandi. 1992-yilning bahorida bo'lib o'tgan Komissiya yig'ilishida Konstitutsiya loyihasini uzil-kesil ishlab chiqish uchun 25 kishidan iborat yangi ishchi guruhi tuzildi hamda loyiha umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Konstitutsiya umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif, tavsiya va mulohazalar bildirildi. 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XII chaqiriq XI sessiyasi bo'lib o'tdi. Deputatlar yakdillik bilan muqaddima, **6 ta bo'lim, 26 ta bob va 128 ta moddadan** iborat Konstitutsiyani qabul qildilar.³ Ushbu tadqiqotni **qiyosiy-tahlil metodi** asosida tahlil qiladigan bo'lsak, 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya hamda 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyani bir-biriga taqqoslash joiz bo'ladi. Xususan, 1992-yildagi Konstitutsiya o'z ahamiyati jihatidan jamiyat hayotini ko'pgina jihatlarini o'zida jamlagan bo'lsa-da, qo'shimcha islohot qilinishga ehtiyoj sezilar edi. Bunga sabab, jamiyat hayotidagi tartibga solinishi kerak bo'lgan normalarning yetilib kelishi hamda zamon talablarining qo'yayotgan shartlari mavjudligi binobarida **2023-yil 30-aprelda** Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu Konstitutsiya shaxs, jamiyat va davlat hayotining eng dolzarb qismini o'z ichiga olgani hamda islohotlar natijasida yangi normalar, yangi institutlarni joriy etilgani yanada adolatli, barqaror bo'lishga erishildi va inson qadr tamoyili hamda inson huquqlariga e'tibor uch barobarga o'sdi. Yangi Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarini yana bir karra yuqori pog'onaga ko'tardi desak adashmagan bo'lamiz. Jumladan, inson huquqlarini ta'minlash doirasida hebeas corpus akti, Miranda qoidasi, bepul yuridik yordam olish davlat tomonidan ta'minlanishi, inklyuziv ta'lim tizimining kafolatlanishi, aholining, ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga qo'shish uchun qilingan ishlar, ularning jamiyat, davlat hayotida ishtirok etishi har tamonlama qo'llab quvvatlanishi va eng muhimi shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lmashligi kabi tushunchalar kiritildi. Bularning barchasi yana bir karra inson qadri tamoyili uchun xizmat qilmoqda. Yangi advokatura institutini Konstitutsiya doirasida joriy etilishi, bir tomondan inson huquqlari himoyasi uchun muhim ahamiyat kasb etsa, ikkinchi tomondan advokatlarning mustaqilligini yana bir bor kafolatlab qo'ydi. Vakolatlar doirasida ham muhim o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Xususan, Prezident vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi, Oliy Majlis vakolatlari kengaytirildi. Siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik, madaniy huquqlar doirasida bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Buning amaliy misolini birinchi moddadayoq ko'rishimiz mumkin. Birinchi moddada O'zbekiston-

³ Konstitutsiyaviy huquq.O.T.Husanov.Darslik.Toshkent-2023.

boshqaruvning Respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat⁴ deb yozib qo'yilgan va bir qator yangi tushunchalar - demokratik, huquqiy, ijtimoiy hamda dunyoviy davlat kabilarni olib kirdi. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonning mamlakat ichkarisida va xalqaro maydondagi o'rnini yana bir karra mustahkamlab qo'ydi. Ijtimoiy hayotda inson qadriga alohida e'tibor qaratildi. Misol qilib oladigan bo'lsak, nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatdan ajralib qolmasligi uchun Konstitutsiya doirasida qator islohotlar qilindi. Ularning ijtimoiy, madaniy hayotda ishtiroki davlat tomonidan kafolatlanadi. Buni amaliy misolini inklyuziv ta'lim tizimini Konstitutsiya doirasida belgilab qo'yilganida ham ko'rishimiz mumkin. Ekologik islohotlarga keladigan bo'lsak, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik, shaharsozlik sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi deb belgilab qo'yildi. Madaniy-ma'rifiy islohotlarga keladigan bo'lsak, fuqarolarning davlat ta'lim tashkilotlarida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishi, oliy ta'lim tashkilotlarining akademik erkinligi, o'zini o'zi boshqarish va o'qitish tizimining mavjudligi, o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatining himoya qilinishi kabilar yangi norma sifatida kiritildi. Umuman olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiya yangidan-yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Inson huquqlari himoyasi hamda kafolati yanada kengaydi, davlat vakolatli organlariga qo'shimcha ma'suliyat yuklandi.

Natijalar

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishi natijasida jamiyatda ko'pgina yangiliklar, islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, inson huquq va erkinliklari sohasida eng ko'p yangilanishlar bo'ldi. Insonning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsiz deb belgilab qo'yildi. Bundan tashqari inson va davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi ziddiyatlar inson foydasiga talqin etilishi, har kim o'z shaxsini erkin kamol toptirishi hamda uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emasligi, insonning huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi kabi normalar asosida insonning huquq va erkinliklari doirasi yanada kengaydi. Ijtimoiy sohada ham inson omiliga alohida e'tibor qaratildi. Masalan, har kim xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlashi hamda homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ishga qabul qilishni rad etish yoki ishdan bo'shatish va ish haqini kamaytirishning man etilishi, davlat tamonidan bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini olib borishi, aholini uy-joyga ega bo'lish tartibi va ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifadagilarni uy-joy bilan ta'minlash tartibi, ekologik nazoratni olib borish, har kimning qulay atrof muhtga va uning holati to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishi, shuningdek:

- O'zbekistonning huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat deb belgilanishi;
- Ta'lim olish huquqining kengaytirilganligi, o'qituvchilar maqomining Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi;
- Inson huquqlari doirasining kengayganligi;
- Inson huquq va erkinliklari kafolatlarining kuchaytirilganligi;

⁴ O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi. www.Lex.uz.

- Davlat majburiyatlarini konstitutsiyaviy darajada belgilanishi;
- Qonun ustuvorligini kuchaytirilganligi;
- Yoshlar huquqini himoyalashning kengayganligi;
- Tadbirkorlar, mulk huquqining kuchaytirilganligi;
- Parlamentarizmning kuchaytirilganligi;
- Hukumat tarkibining ixchamlashtirilganligi;
- Advokatura faoliyatiga konstitutsiyaviy maqom berilganligi.⁵

Konstitutsiya doirasida belgilab qo'yildi va "Inson- jamiyat – davlat", "Yangi iqtisodiy islohotlarning bosh mezon", "Jamiyat islohotlar tashabbukori" singari ezgu g'oyalar asosida o'z aksini topdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish uchun bo'lib o'tgan referendumda ro'yxatga kiritganlarning 82,51% ishtirok etdi. Shulardan 90,21% "Ha" deb – ya'ni loyihani ma'qullab, 9,35% loyihaga qarshi ovoz berdi. Natijada loyihani Mutlaq ko'pchilik ma'qulladi.⁶

Muhokama

Ushbu tadqiqot natijalari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi O'zbekistonning siyosiy-huquqiy tizimida chuqur strukturaviy o'zgarishlarni boshlab berganini ko'rsatadi. Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, Konstitutsiya normalarining 65 foizdan ortig'i yangilangani nafaqat normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qildi, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi modelini shakllantirishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy manbalarda keltirilgan qarashlar bilan uyg'un bo'lib, konstitutsiyaviy yangilanishlar ko'pincha keng qamrovli institutsional islohotlar bilan birga kechishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, olingan ma'lumotlar ayrim yangi xulosalarni ham taqdim etadi. Xususan, Konstitutsiyani amalda tatbiq etish jarayoni nafaqat markaziy davlat organlari, balki hududiy boshqaruv tizimlari faoliyatida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirayotgani kuzatildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Konstitutsiyada belgilangan inson huquqlari kafolatlarini amalda ta'minlash maqsadida davlat organlari tomonidan qator yangi mexanizmlar ishga tushirilgan. Huquqiy yordam olishning soddalashtirilgani, elektron murojaat tizimlarining kengaytirilgani va sud hokimiyatining nisbatan mustaqillashuviga doir qadamlar bunga misol bo'ladi. Biroq tadqiqot amaliyotda hali ham bir qancha muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Jumladan, ayrim idoralarning yangi konstitutsiyaviy talablarni to'liq joriy etish borasida tajriba, resurs yoki tashkiliy tayyorgarligi yetishmayotgan holatlar uchramoqda. Jumladan, ba'zi davlat tashkilotlarida qonunchilikda ko'rsatilgan normalarni noto'g'ri talqin qilayotgan xodimlarning harakatlari jamiyatda bir qancha salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotganligi yoki shaxsiy manfaati yo'lidagi harakatlari fuqarolarning huquq va erkinliklari va jamiyat manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu holatlarni bartaraf etish chora-tadbirlari uchun davlat tashkilotlarining faoliyati to'g'risidagi qonunosti hujjatlarini kechiktirmasdan qayta ko'rib chiqishlik lozim bo'ladi. Tadqiqot davomida muhim jihatlardan biri sifatida ijtimoiy siyosatdagi o'zgarishlar ham qayd etildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ijtimoiy himoya davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu ta'lim, sog'liqni saqlash, oilani qo'llab-quvvatlash va imkoniyati cheklangan fuqarolarga beriladigan kafolatlarni kengaytirishni talab qiladi. Kuzatuvlar ushbu yo'nalishlarda sezilarli ijobiy siljishlar mavjudligini ko'rsatsada, ammo ularning samaradorligini baholash uchun jiddiy

⁵ Konstitutsiyaviy huquq.O.T. Husanov. Darslik. Toshkent-2023.

⁶ Xalq so'zi.2023-yil 2-may.

monitoring zarurligi aniqlanmoqda. Tadbirkorlik va investitsiya muhitining yaxshilanishi bo'yicha qabul qilingan hujjatlar Konstitutsiyada belgilangan "bozor iqtisodiyoti" tamoyillari bilan uyg'unlashgan bo'lsada, biroq, iqtisodiy islohotlarning natijasi davlat organlari o'rtasidagi shaffoflik va barqarorlikka bog'liq bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, kuzatilgan natijalar yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi O'zbekistonning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy hayotida muhim burilish yasanagini tasdiqlaydi. Ammo Konstitutsiya normalarining to'liq va samarali joriy etilishi uzoq muddat talab qilishi, institutsional madaniyatning moslashuvi, boshqaruv amaliyotlarining takomillashuvi va demokratik, fuqarolik jamiyati faolligi bilan chambarchas bog'liq ekani aniq bo'ldi. Shu sababli, tadqiqotning kelgusidagi bosqichlarida nafaqat normativ o'zgarishlar, balki ularning real hayotdagi ta'siri, barqarorligi va jamiyat tomonidan qabul qilinish darajasini chuqur o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat siyosiy-huquqiy tizimida tub burilish yasadi. Konstitutsiyaviy islohotlar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda inson manfaatlarini markazga qo'yish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini kengaytirish va demokratik boshqaruvni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, avvalo, "Inson -jamiyat-davlat" tamoyilining oliy konstitutsiyaviy prinsip sifatida mustahkamlanishi mamlakatda insonlarning huquq va erkinliklari davlat manfaatlaridan ustuvor ekanini e'tirof etadi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasini real huquqiy majburiyatlarga aylantirib, aholining ijtimoiy himoyasi, ta'lim, sog'liqni saqlash, munosib mehnat va yashash sharoitlari kabi sohalarida davlatning aniq kafolatlarini belgilaydi. Bunda aholining zaif qatlamlari — nogironligi bo'lgan shaxslar, bolalar, ayollar, keksalar manfaatlarini alohida himoya qilishga urg'u berilgan. Shu jihatdan yangi Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvini optimallashtirishni, balki inson kapitaliga sarmoya kiritishni ham strategik vazifa sifatida belgiladi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy islohotlar demokratik institutlar faoliyatini kuchaytirish orqali xalqning siyosiy jarayonlarda ishtirokini yanada kengaytirdi. Parlamentning rolini mustahkamlash, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlarini kengaytirish, sud hokimiyatining mustaqilligi va adolatli jarayon tamoyillarining aniq belgilanishi, siyosiy tizimning barqarorligi hamda fuqarolik jamiyati rivojiga asos yaratadi. Umuman olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekistonni zamonaviy, adolatli va barqaror davlat sifatida shakllantirishga qaratilgan huquqiy poydevorni mustahkamladi. U nafaqat deklarativ hujjat, balki amalda ishlashi zarur bo'lgan strategik dasturdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" Toshkent - 2023
- 2.Konstitutsiyaviy huquq. O.T.Husanov. Darslik. Toshkent-2023.
- 3.Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. Toshkent - 2024.
- 4.Yangi Konstitutsiya:Yangi O'zbekistonning huquqiy asosi. <https://phoenixpublication.net> 2025
- 5.O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi. www.Lex.uz
- 6.Xalq so'zi. 2023-yil 2-may